



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 342 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari.....	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellastirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
Axmedova Dilnoza Anvarovna	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
D. J. Norboyeva	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
Khazratova Zukhra Mamaraimovna	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
Niyozov Javlonbek	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
Solihova Barno Sodiq qizi	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
Yarmatov Shermo'min Rahmatovich	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
Атаджанова Сохиба Талиповна	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
Eshonqulova Umida Xolmirzayevna	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
Abulova Mohigul Komiljonzoda	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullaevna</i>	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
<i>Muzafarov Muxammadali Maxsudovich</i>	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
<i>Yadgarova Surayyo</i>	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
<i>Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
<i>Yusupova Sanobar Odil qizi</i>	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
<i>Бахтияр Катибжанович Саттаров</i>	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
<i>Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова</i>	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
<i>Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова</i>	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
<i>Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева</i>	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
<i>Zuhridin Azizov</i>	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
<i>Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.</i>	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
<i>Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова</i>	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</i>	
Поэтапное вовлечение детей с расстройствами аутистического спектра в дошкольное инклюзивное образование: комплексный анализ научно-теоретических и практических подходов	234
<i>Сабина Рагимова Ровшан кызы, Айсель Масимова Арастун кызы</i>	
Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	245
<i>Allaniyazova Bibigul Sarsenbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslariga kreativ fikrlash asosida tayyorlash	248
<i>Botirova Jumagul Chori qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	254
<i>Kaypova Gulnara Muratbaevna</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarining rivojlantirish masalalari	257
<i>Davletova Hamida Xasan qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlari	261
<i>Fayzullayev Ermat Majidovich, Ortiqova Mashxura</i>	
Orkestr va ansamblarning fan sifatidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati	265
<i>Fayzullayev Ermat Majidovich</i>	
Maktab fizika darslarida interaktiv dasturlar va simulyatorlardan foydalanish metodikasi	269
<i>Xayriddinova Malikaxon Qodirxon qizi</i>	



Musiqada midi musiqiy cholg'ularning raqamli interfeysi.....	274
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich</i>	
Karyera o'sishida gender tafovutlarning ahamiyati.....	277
<i>Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	283
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich, Normuradova Nafisa Kuchkarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida	287
<i>Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Marjona Atoyeva Ismat qizi</i>	
Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari.....	291
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatonova, Ne'matjonova Gulzira Ne'matjon qizi</i>	
Jadid pedagogik tafakkurida "o'qituvchi" fenomeni.....	294
<i>Xushbokov Oybek Uralovich</i>	
Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida savol berish malakalarini shakllantirish	296
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
Musiqiy ta'limda xalq va zamonaviy qo'shiqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning etnomadaniy komponentlarni shakllantirish	298
<i>Qurbanova Muslima Shavkatbek qizi</i>	
Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikasi (biologiya fani misolida).....	300
<i>Akmalova Farida Dilmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda adaptiv ta'lim texnologiyalari yordamida bolalar ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish mazmuni.....	304
<i>To'xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi iqtidorli bolalar bilan ishlashda ta'lim texnologiyasi	308
<i>Xudoyberdiyeva Durdona Baxodir qizi</i>	
Pedagogik-psixologik qarashlarda otaning oiladagi o'zni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish dinamikasiga oid fikrlar talqini.....	311
<i>Karshiyeva Dilafuz Suyunovna, Maxamatova Munisa Mamirzo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari	314
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda interpersonal intellekt ko'nikmalarini rivojlantirish ...	318
<i>G'ulomova Oychehra No'monjon qizi</i>	
Etnomadaniy qadriyatlarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirishning samarali yo'llari.....	321
<i>G'ulomxo'jayeva Mushtariy Elmurod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish	324
<i>Iroda Isroilova</i>	
Buxoro iqlimi va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish: ekologik va fizik-geografik yondashuv	329
<i>Mardonova Saodat Muzaffarovna</i>	
Effective Traditional and Innovative Approaches in English Language Teaching: Evidence From EFL Classrooms	333
<i>Yuldoshev Khaydarbek</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirishda lingvopedagogik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari.....	336
<i>Allayarova Sojida Umirzakovna</i>	
Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения	339
<i>Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.</i>	

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Iroda Isroilova

Olmazor tumani 46-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanishning didaktik va metodik jihatlarini tahlil qilinadi. Grafik organayzerlarning o'quvchilarda til birliklarini tizimli o'zlashtirish, bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, mantiqiy fikrlash hamda mustaqil tahlil ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda grafik organayzerlardan foydalanish orqali induksiya, deduksiya va analogiya metodlarini uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, bolalar adabiyoti namunalari asosida ishlab chiqilgan jadval va topshiriqlar orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual yutuq va kamchiliklarini belgilash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: grafik organayzerlar, nazorat mashqlari, induksiya, deduksiya, analogiya, qoidalar kombinatsiyasi, bolalar adabiyoti.

Abstract: This article analyzes the didactic and methodological aspects of using graphic organizers in primary school mother tongue lessons. The significance of graphic organizers in developing students' systematic mastery of language units, the generalization and consolidation of knowledge, logical thinking, and independent analytical skills is substantiated. The study highlights the possibilities of integrating induction, deduction, and analogy methods through the use of graphic organizers. In addition, tables and tasks developed on the basis of children's literature samples are used to determine students' levels of knowledge, identify individual achievements and shortcomings, and improve the effectiveness of the educational process.

Key words: graphic organizers, assessment tasks, induction, deduction, analogy, combination of rules, children's literature.

Аннотация: В статье анализируются дидактические и методические аспекты использования графических органайзеров на уроках родного языка в начальной школе. Обосновывается значение графических органайзеров в формировании у учащихся системного усвоения языковых единиц, обобщения и закрепления знаний, развития логического мышления и навыков самостоятельного анализа. В исследовании раскрываются возможности интеграции методов индукции, дедукции и аналогии посредством применения графических органайзеров. Кроме того, таблицы и задания, разработанные на основе образцов детской литературы, используются для определения уровня знаний учащихся, выявления индивидуальных достижений и недостатков, а также повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: графические органайзеры, контрольные задания, индукция, дедукция, аналогия, комбинация правил, детская литература.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fanini samarali o'qitish o'quvchilarda lingvistik kompetensiya, mantiqiy fikrlash va mustaqil tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Pedagogik amaliyotda interfaol metodlar keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan tizimli foydalanishning didaktik imkoniyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois grafik organayzerlarning o'quvchilarning bilish faoliyatiga ta'siri va ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini asoslashdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitish masalalari pedagogika va tilshunoslik metodikasi sohasida doimo e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. O'quvchilarda til birliklarini anglash, ularni tizimli ravishda o'zlashtirish va mustahkamlash jarayoniga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar ona tili darslarida qo'llaniladigan metod va usullar o'quvchilarning bilish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida vizual vositalardan foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, grafik organayzerlar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirish, bilimlarni tartibga solish va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglashda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda grafik organayzerlarning mantiqiy tafakkur va analitik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan bo'lsa-da, ularni boshlang'ich sinf ona tili darslariga moslashtirish masalasi yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Mahalliy metodik adabiyotlarda esa ona tili darslarida mashq tizimini takomillashtirish, bolalar adabiyoti asosida til materialini o'rgatish hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanish masalalari muayyan darajada tahlil qilingan. Biroq mavjud tadqiqotlar asosan an'anaviy metodlarga yo'naltirilgan bo'lib, grafik organayzerlarning boshlang'ich sinf ona tili darslaridagi imkoniyatlari, ularning o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasiga ta'siri hamda metodik samaradorligi yetarli darajada ochib berilmagan. Shu sababli grafik organayzerlardan foydalanishning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularni boshlang'ich sinf ona tili darslariga tizimli tatbiq etish hamda ta'lim jarayonidagi samaradorligini ilmiy asoslash zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan bo'lib, boshlang'ich ta'lim metodikasini boyitishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayoni izchil va o'ziga xos bir butun tizim bo'lib, u ta'lim beruvchidan ketma-ketlikka, ya'ni "osondan murakkabga" tamoyiliga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Har qanday yangi mavzu avval o'tilgan mavzularning mantiqiy davomi bo'lishi, o'quvchilarga mavjud bilimlariga tayangan holda yangi mavzuni sifatli o'zlashtirish imkonini yaratadi. O'qituvchilar, odatda, darsning kirish qismida, bob, bo'lim, chorak yoki yil yakunida o'tilgan barcha mavzularni takrorlash va mustahkamlash maqsadida turli usul va metodlardan foydalanadilar. Biror mavzuning chetda qolib ketmasligini ta'minlash uchun o'qituvchi ko'pincha ikki yoki undan ortiq qo'shimcha usullardan foydalanishga majbur bo'ladi. Aynan shu jarayonda barcha o'tilgan mavzularni qamrab olgan umumiy mustahkamlovchi mashg'ulotlarga ehtiyoj yuzaga keladi. Qaysi mavzular o'quvchilar tomonidan umumiy tarzda yetarli darajada o'zlashtirilmaganini aniqlashda yoki yangi mavzuni o'rganish jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarning umumiy ildizini, shuningdek har bir o'quvchining individual yutuq va kamchiliklarini belgilashda umumiy mustahkamlovchi nazorat mashg'ulotlari alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida biz tavsiya etmoqchi bo'layotgan grafik organayzer yuqoridagi talablarga boshqa usul va metodlardan ko'ra to'laroq javob berishi bilan ahamiyatlidir:

1-jadval: 1-sinf uchun.

Yonimda dag'al qo'llari bilan boshlarimni silab, ko'zlarimga termilib novcha kampir borardi. (X.To'xtaboyev)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni jadvalga joylashtiring.

№	So'z	So'rog'i	Qanday ma'no bildiriyapti?			
			Shaxs va narsaning nomini	Shaxs va narsaning harakatini	Shaxs va narsaning belgisini	Shaxs va narsaning miqdorini
1	dag'al	Qanday?			+	
2	novcha	Qanday?			+	
3	borardi	Nima qilardi?		+		



2-jadval: 2-sinfda tovush harflari tahlili uchun.

Zokir ikkalamiz nima deyishimizni bilmay baravariga yelkamizni qisib qo'ya qoldik. (X.To'xtaboyev)

Ajratib ko'rsatilgan so'z tarkibidagi tovush harflarini jadval asosida tahlil qiling.

№	Tovush harfi	Unli	Undosh					
			Jarangli	Jarangsiz	Harf	Harf birikmasi	Talaffuzda tushib qoladi	Talaffuzda tushib qolmaydi
1	b		+		+			+
2	a	+						
3	r		+		+			+
4	a	+						
5	v		+		+			+
6	a	+						
7	r		+		+			+
8	i	+						
9	g		+		+			+
10	a	+						

3-jadval: 3-sinfda sifat so'z turkumi tahlili uchun.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi... Kichik sinlimning oti Donoxon. (X.To'xtaboyev)

Sifatlarni toping va jadval asosida tahlil qiling.

№	So'z	So'rog'i	Nimaning belgisini bildiriyapti?		Yasovchi qo'shimchasi bormi?		Qarama-qarshi ma'nosi
			shaxs	narsa	bor	yo'q	
1	Katta	Qanday?	+			+	kichik

4-jadval: Ot so'z turkumi yuzasidan 4-sinf o'quvchilari uchun.

Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri so'zla! (Maqol)

Gapdagi otlarni toping va jadval asosida tahlil qiling.

№	Soʻzlar	Soʻrogʻi	Birlik	Koʻplik	Egalik qoʻshimchasini olgan soʻz		Egalik qoʻshimchasi						Qaysi kelishik shaklida kelgan?						Egalik q. si qanday tovushdan soʻng kelgan		Sodda	Yasama
					Oʻzgargan	Oʻzgarmagan	1-shaxs		2-shaxs		3-shaxs		Bosh k.	Qaratqich k.	Tushum k.	Joʻnalish k.	Oʻrin-payt k.	Chiqish k.	Unli	Undosh		
1	Boshingga	Nimangga?	+		+				+							+				+	+	+



Bunda tahlil uchun beriladigan matnlar (darslikdan tashqari) bolalar adabiyoti namunalardan olinadi. Ya'ni, matn o'quvchilarga notanish bo'ladi va bu holat o'quvchilarni mashqni texnik (yoddan) emas, balki ongli ravishda bajarishga o'rgatadi. Tahlil jarayonida o'qituvchi tomonidan tahlil uchun tanlangan matnlarning manbasi (hikoya, ertak, qissa) yoki muallifi haqida qisqacha va qiziqarli ma'lumotlar berilishi bolalarda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Shuningdek, tahlil uchun matnlarni o'qish darsliklaridan tanlab olib, kombi-natsiyalashgan darslarni tashkil etish ham mumkin.

Bunday mashg'ulot turlari dars vaqtini tejash bilan bir qatorda bir qator pedagogik qulayliklarga ham ega. Jumladan, undan darsning kirish qismida o'tilgan mavzuni takrorlash, mavzu yakunida mustahkamlash, shun-ingdek, nazorat ishi sifatida foydalanish mumkin. Yana bir muhim jihati shundaki, o'qituvchi bir qolipdan bir necha bor, hatto yil davomida ham foydalanishi mumkin. Buning uchun faqat tahlilga beriladigan materialni o'zgartirish kifoya. O'quvchilarga bir-biridan farqlanuvchi turli materiallarni berish esa topshiriqlarning o'zaro ko'chirib bajarilishiga (ayniqsa, yonma-yon o'tiruvchi o'quvchilar o'rtasida) imkon qoldirmaydi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada real va ishonchli o'quv natijalari olinadi. Ushbu mashg'ulot turi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan induksiya, deduksiya va analogiya metodlarini bir vaqtda mujassamlashtira oladi. Chunki grafik organayzerlarni bajarish jarayonida o'quvchi o'rganilgan qoidalarni amalda qo'llaydi (deduksiya), tahlil asosida umumiy xulosalar chiqaradi (induksiya) hamda misollar orqali o'zaro o'xshash jihatlarni aniqlaydi (analogiya).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish o'quvchilarning til materialini o'zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Odatda, maktab darsliklarida takrorlash va mustahkamlash uchun beriladigan mashqlar aynan bitta qoida doirasida o'zlashti-rishga yo'naltiriladi, ya'ni ma'lum bir qoida uchun yetarli miqdorda mashqlar bajarilgachgina navbatdagi qoida bo'yicha yangi mashqlar taklif etiladi. Grafik organayzerlarda esa o'quvchi o'ziga xos kombinatsiya asosida bir nechta qoidalarga bir vaqtning o'zida duch keladi va ularni aniq farqlay boshlaydi. Ma'lum bir mavzu yuzasidan berilgan qolipda so'ralgan elementlarning boshqa mavzularga oid jadvallarda takrorlanmasligini kuzatish jarayonida o'quvchi, hatto topshiriqni noto'g'ri bajargan holatda ham, qaysi xususiyat qaysi qoidaga tegishli ekanini anglab yetadi. Qoidalarni bir vaqtda har doim ham to'liq va to'g'ri qo'llay olmasligi mumkin, biroq ularni chalkashtirib yubormaydi.

Jadvalni to'ldirish jarayonida o'quvchi mavjud barcha qoidalardan kompleks tarzda foydalanadi. Berilgan matn tarkibidan qolipga joylashtirilishi lozim bo'lgan so'zni topish jarayonining o'zi ham darsliklarda uchray-digan mashq turlaridan birini bajarishga tengdir. Grafik organayzerlar tashqi ko'rinishiga ko'ra klasterlarga yoki variantli test topshiriqlariga o'xshab ketadi. Birinchi sinfdan boshlab ushbu topshiriq turining sodda shakllarini o'zlashtirgan o'quvchilar bilan yuqori sinflarda ishlash o'qituvchi uchun ancha oson kechadi, chunki ular avval olgan bilim va ko'nikmalarini tez, oson va to'laroq eslaydi hamda xotirada qayta tiklay oladi.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, grafik organayzerlar boshlang'ich sinf ona tili darslarida bilimlarni tizimli o'zlashtirish, mavzularni umumlashtirish va mustahkamlash jarayonida muhim metodik vosita hisoblanadi. Ularning qo'llanilishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtirib, til materialini ongli ravishda o'zlashtirishiga, shuningdek, mustaqil tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur imkoniyatlarni hisobga olgan holda, hozirgi kunda boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi barcha mavzularni qamrab oluvchi grafik organayzerlar majmuasini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu majmua o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual yutuq va kamchiliklarini belgilash hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, grafik organayzerlar majmuasi o'qituvchilar uchun ham metodik qo'llanma vazifasini bajarib, darslarni rejalashtirish va tashkil etishda qulaylik yaratadi.

Kelgusida ishlab chiqilayotgan grafik organayzerlar majmuasini amaliyotga tatbiq etish, uning ta'lim jara-yoniga ta'sirini ilmiy asosda baholash hamda boshqa fanlar doirasida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar boshlang'ich ta'lim metodikasini takomil-lashtirish, ona tili darslarining samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlan-tirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Boshlang'ich sinf uchun ona tili darsligi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2013.
2. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 2-sinf uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2012.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. 3-sinf uchun ona tili darsligi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2012.
4. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. 4-sinf uchun ona tili darsligi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2013.
5. Masharipova U., Boqiyeva H., Umarova Z., Aripova M. Ona tili va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2013.
6. Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldoshev M., Muhamedova D. O'zbek tili praktikumi. – Toshkent: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2006.
7. Jo'rayev R., To'xtasinov B. Pedagogika. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2010.
8. Karimova D., Abdullayeva N. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2015.
9. Shodmonqulova D. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2014.
10. Novak J. D., Cañas A. J. The Theory Underlying Concept Maps and How to Construct and Use Them. – Florida Institute for Human and Machine Cognition, 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.